



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI



"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SURXONDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

190100, Termiz shahri, Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Turon" bank, Tel/Faks: 76-223-50-61, E-mail: surxonekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Nuraliyev Nurbek Baxtiyorovich



2026 - yil 25 - apreldagi 278816 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: "DZH 3531 Mini ofis (bruschatka qoplamali) Manzil Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 46-uy" ishchi loyihasi bo'yicha

Buyurtmachi: UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS MCHJ

Bosh loyihachi: OOO UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: Tanlov savdolari natijalariga asosan aniqlanadi

Qurilish turi: Joriy ta'mirlash

Murojaat raqami: 117685

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. Buyurtmachi tomondan 2026 yil 6 aprelda tasdiqlangan loyiha topshirig'i.
- 1.2. Buyurtmachining 2026 yil 6 apreldagi 99 sonli yig'ilish Bayonnomasi.
- 1.3. Buyurtmachi tomonidan 2025 yil 26 dekabrda tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi.
- 1.4. Buyurtmachining 2025 yil 25 iyuldagi 03-1/0574-1 sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- 2.1. Yo'riqnoma.
- 2.2. Qurilishni tashkillashtirish loyihasi.
- 2.3. Smeta hujjatlari.
- 2.4. Nuqsonlar dalolatnomasi

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Ushbu joriy ta'mir loyihasida Jizzax viloyati Jizzax shahri Sh.Rashidov ko'chasi 46-uy manzilgohida joylashgan **DZH 3531** "Mini ofis" ob'ektida ta'mirlash ishlari bajarilishi rejalashtirilgan.

Buyurtmachi va manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat komissiya a'zolari ishtirokida ijara binosining texnik holati vizual ko'rikdan o'tkazilishi natijasida nuqsonlar dalolatnomasi tuzilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan.

Mazkur nuqsonlar dalolatnomasida ijara binosi konstruksiyalarini kuchaytirish tavsiyalari berilmagan va asosan pollarning qoplamasi va poydevor qismiga granit ishlari bajarilishi

ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

-

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

-

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **69 938 736** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **0** so'mga kamaytirilib,

69 938 736 so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **62 445 300** so'm

QQS: **7 493 436** so'm

6.1. Ekspertizadan o'tkazish jarayonida lokal ekspert xulosalar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida loyihachi tomonidan ishchi loyihaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi:

- qurilishni tashkil qilish loyihasi taqdim qilindi,
- nuqsonlar dalolatnomasiga asosan smetada ayrim ish hajmlari aniqlandi,
- resurs ko'rsatkichlarining narxi (mashinalar va mexanizmlarning ishlashi, transport harajatlari, materiallar va texnologik jihozlar) joriy narxlarga muvofiq tekshirildi.

Ushbu ishchi loyiha, buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonlar qaydnomasiga asosan smeta qismi tekshirildi va "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi" DM Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi nuqsonlar qaydnomasida keltirilgan ish xajmlarining haqqoniyligi va asosligiga javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Loyiha buyurtmachi tashkilotining loyiha bo'yicha taklif va tavsiyalarisiz ekspertiza ko'rigiga topshirildi.

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Jizzax viloyati Jizzax shahri Sh.Rashidov ko'chasi 46-uy manzilgohida joylashgan **DZH 3531** "Mini ofis" ob'ektida ta'mirlash ishlari" ishchi loyihasi qiymatini kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.

Ishtirokchi ekspertlar: Davlatov Doniyor Dilshod O'g'li

Bosh ekspert



**DAVLATOV DONIYOR DILSHOD
O'G'LI**